

Murodjon Rahmatullaev

Buxoro davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola Buxoro matbuotining tarixiy ildizlari va jadid ma'rifatparvarlarning jurnalistik faoliyati bilan bog'liq jihatlar yoritilgan. SHuningdek, Buxoroda "Buxoro axbori", "Ozod Buxoro", "Buxoro proletari", "Buxoro haqiqati" singari turli nomlar bilan gazetalar chop etilganligi, unda Fayzulla Xo'jaev, Said Ahroriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Abbos Aliev, Qori Yo'ldosh Po'latov, Mahmud Badaliy, Ziyos Usmoniy, Ostonaqul Abduqayum o'g'li kabi jadid ma'rifatparvarlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shganliklari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jadid, matbuot, gazeta, jurnal, sovet, bolshevik, mustabid tuzum, mustamlaka, "Turkrosta", "Buxoro axbori", "Ozod Buxoro", "Buxoro proletari", "Buxoro haqiqati", senzura.

Buxoro uch ming yillik qadim tarixga ega. Bu diyor avliyolar, mutafakkirlar, allomalar, ulamolar, olimlar, ziyolilar, davlat va jamoat arboblari hamda milliy ozodlik yo'lida kurashgan fidoyilarga beshik bo'lgan. Ushbu zaminda yashagan allomalar va mutafakkirlar tomonidan ko'plab nodir asarlar yozilgan. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik davrida Buxoroda dastlabki matbachilik vujudga keldi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati, Buxoro Kompartiyasi Markaziy komiteti va Fayzulla Xo'jaevning suroviga asosan RSFSR Butunittifoq Markaziy Ijroiya komiteti huzuridagi sentr pechat, 1919 yil 5 aprelda Toshkentda tashkil topgan Turksentropechat, Rossiya telegraf agentligining "Turkrosta" bo'limi Buxoroda ommaviy axborot organlari tashkil etishda qatnashdilar. 1920 yil oktyabr oyida BXSr matbuot apparati tashkil etildi. Bu matbuot organi Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti matbuot byurosi Nizomiga asosan ish yuritdi [1].

1920 yil oktyabrda Buxoro telegraf agentligiga asos solindi. Uning musulmon tilidagi "Jarchi", rus tilidagi "Kundalik" devoriy gazetalar BXSrda, Rossiya va Turkistonda yuz bergan yangiliklarni yoritib bordi. Fayzulla Xo'jaev mazkur gazetalar va "Buxrosta", "BuxTA" axborot organlarini tashkil etish ishlariga bevosita rahbarlik qildi. Ayniqsa, uning BXSr matbaa bazasini yaratishdagi xizmatlari alohida diqqatga sazovor. F.Xo'jaevning bevosita ishtirokida Eski Buxoro va Yangi Buxoro (Kogon) da 1,2-davlat bosmaxonalari tashkil etildi. Ularda gazeta, jurnal, varaqalar, kitob va plakatlar nashr etish yo'lga qo'yildi [1].

Keyinchalik Buxoroda "Buxoro axbori", "Ozod Buxoro", "Buxoro proletari", "Buxoro haqiqati" singari turli nomlar bilan gazetalar chop etildi. Buxoro matbuotining shakllanishiga o'zlarining ulkan hisasini qo'shganlar Fayzulla Xo'jaev, Said Ahroriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Abbos Aliev, Qori Yo'ldosh



Po‘latov, Mahmud Badaliy, Ziyos Usmoniy, Ostonaqul Abduqayum o‘g‘li, Abdusalom Niyozov, A‘lo Kamolov va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin [3].

Buxoro jurnalistika maktabining to‘ng‘ich vakili Said Ahroriy sovet mustabid tuzumining o‘sha murakkab va mashaqqatli yillarida mustaqil matbuot organiga asos solib, “Buxoro axbori”ni haftada 2-3 marta 3-5 ming nusxada muntazam chiqarib turgan [4].

1922 yil aprel oyida chiqa boshlagan “Bilim uchquni”, birlashgan harbiy kursning o‘zbek tilidagi “Qizil nayza”, rus tilidagi nashr etilgan “SHkola i jizn” jurnallari, fors tilidagi “Najot” gazetasi, 1923 yilda chiqarilgan Buxoro maorif organi – “Uchqun”, “Maorif va madaniyat” jurnallari shular jumlasidandir. BXSrning turli shahar va qishloqlarida chiqarilgan yoshlar matbuotini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Masalan, 1922 yil YAngi Buxoro (Kogon) da komsomollarning “YOsh inqilobchi” gazetasi, Buxoroda esa “YOsh kuch”, “YUniy proletariy” jurnallari, Kovshun qishlog‘i yoshlarining “Kovshun yoshlari” gazetasi chiqarilgan. Buxoro telegraf agentligining “Jayhun axbori”, “Turkestanaskaya pravda”ning Buxorodagi bo‘limi tomonidan nashr etilgan “Buxarskaya pravda” gazetalari, “Buxoro turmushi” jurnalining aholi orasida hukumat siyosatini tushuntirishda xizmati katta bo‘lgan [5].

O‘zbekiston SSRda XX asrning 20-30 yillarida nashr etilgan matbuot organisahifalarida Fayzulla Xo‘jaev imzosini muharririyatning shtatli xodimlari faoliyatiga nisbatan ko‘proq uchratish mumkin. Katta va mas‘uliyatli lavozimlarda ishlagan publitsist o‘zining jurnalistik kasbini bir lahza ham esdan chiqarmagan. U shu kasb bilan faxrlangan. VKP (b) XV s‘ezdi delegatlari uchun berilgan va 1927 yil 1 dekabrda F.Xo‘jaev o‘z qo‘li bilan to‘ldirilgan anketada kasbini faxr bilan “jurnalist” deb yozganligi ham bejiz emas [6].

XX asrning 20-yillari oxirlarida O‘zbekistonda erkin ijodkorlar faoliyati bolsheviklar tomonidan qattiq nazoratga olinib boshladi. Matbuotda qattiq senzura o‘rnatildi. Ilgarigi milliy matbuot o‘rnini kommunistik mafkurani targ‘ib qiluvchi gazeta va jurnallar egalladi. Matbuotda bildirilgan har bir erkin fikr bolsheviklar tomonidan tahlil qilinardi. Milliy ongini o‘stirishga da‘vat etuvchi har qanday maqola yoki asar bolsheviklarning qattiq qarshiligiga uchrardi.

O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi raisi Jahongir Ismoilov tomonidan “Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bag‘ishlab, kitob to‘plam tayyorlandi. Kitobning dastlabki boblarida o‘tgan asrning 20-yillarida amirlik istibdodiga qarshi kurashuvchilarning matbuot organi bo‘lgan “Qutulish” va “Uchqun” gazetalari izdoshi sifatida dunyoga kelib, “Buxoro axbori”, “Ozod Buxoro” va “Buxoro proletari” nomlari ostida chiqarilgan ushbu nashr tarixi bayon etilgan. Asar muallifi Said Ahroriy, Abdulhamid CHO‘lpon, Ziyos Usmoniy, Ostonaqul Abduqayum o‘g‘li, Qori Yo‘ldosh Po‘latov, qosim sorokin, Abdusalom Niyozov kabi erkparvar ziyolilar muharrir bo‘lgan bu gazeta tez orada voha ahlining sevimli nashriga, erkin fikr minbariga aylanganini aniq misollar vositasida ko‘rsatishga harakat qilgan [7].


Stalin qatag‘oni ayni avjiga chiqqan 1937 yilda ushbu kitob muallifi 5 yoshda bo‘lgan. Aynan o‘sha yili uning padari buzrukvorini – Tilaymurod Niyozov “xalq dushmani”

sifatida NKVD qamoqxonasiga tashlanib, navqiron umri tikanli sim ortida xazon qilingan. Uning qachon va qacda dafn etilgani hozir ham noma'lum. Ahmadjon Niyozmurodov taqdiridagi ana shu dardli sahifani qalamga olar ekan, viloyat gazetasining qatag'on davrida qatl etilgan muharrirlari va jurnalistlari haqidagi ma'lumotlardan o'quvchilarni xabardor etib, shahidlar ruhini shod qildi. Muallif sobiq ittifoq parchalanishi arafasida "Markaz" ning Gdlyan, Ivanov singari tergovchilari o'ylab topgan "o'zbeklar ishi", "paxta ishi" degan yolg'on-yashiq va tuhmatlar bilan xalqimiz boshiga ko'pgina kulfaktlarni solganlarini, hatto Moskvadan turib, unga – viloyat gazetasi muharririga buyruq berishga harakat qilganlarini dalillar vositaksida ko'rsatgan [8].

Mazkur risolada "Buxoronoma" gazetasi tarixiga doir ayrim faktlarning takror ishlatilgani, ko'pgina boblar ehtiros bilan yozilgani baro-barida ayrim sahifalarda bayonchilikka o'rin berilgani, ba'zi sanalarning noaniq yozilgani kabi kamchiliklar mavjud. Biroq, bu kamchiliklarga tadqiqotning oldiga qo'ygan maqsadiga putur etkazmagan. Ahmadjon Niyozmurodovning "Buxoro" nashriyoti tomonidan "Viloyat bosmaxonasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati homiyligida chiqarilgan risolasi viloyat matbuoti va matbaasining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, milliy jurnalistika taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar, tahririyatda ishlayotgan qalamkashlar mehnatini e'tirof etib, ularni yangi ijodiy muvaffaqiyatlarga chorlash niyatida bitilganligi tahsinga sazovordir [9].

Sovet boshqaruvi sharoitida O'zbekistonda ko'p hollarda, bo'lar-bo'lmasga katta komissiyalar yig'ilib, jurnalist xodimlarning faoliyati va tahririyatning barcha ishlari sinovdan, aniqrog'i tekshiruvdan o'tkazilgan. Ana shunday "komissiya"lar tarkibiga kiritilgan ayrim amalparastlarning tirnoq ichidan kir axtarishlari ijodiy ishga va sog'lom muhitga rahna solgan.

Xullas, jadidchilik g'oyalarining faol targ'ibotchisi bo'lgan ziyolilar o'zbek xalqining milliy uyg'onishi yo'lida jiddiy kurashgan edilar. Ularning asarlari va matbuotda e'lon qilgan maqolalari bolsheviklar tomonidan muttasil tanqid qilib turildi. Bolsheviklarning milliy ziyolilarga qarshi qaratilgan har qanday urinishlari ularni ona Vatan ozodligi yo'lidagi kurashidan qaytara olmadi.



ADABIYOTLAR:

1. Бақоев М. Файзулла Хўжаев – журналист ва публицист. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. –Б.28.
2. Бақоев М. Файзулла Хўжаев – журналист ва публицист. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. –Б.28.
3. Иброҳимова Д. Фидойилар қонидан яралган матбуот // “Бухоронома”. 2020 йил 29 сентябрь.
4. Иноятлов С. “Бухоро ахбори”нинг биринчи муҳаррири // “Бухоронома”. 2020 йил 29 сентябрь.
5. Бақоев М. Файзулла Хўжаев – журналист ва публицист. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. –Б.28-29.
6. Бақоев М. Файзулла Хўжаев – журналист ва публицист. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. –Б.29.
7. Халилов А. Устоз журналист армуғони // “Бухоронома”. 2009 йил 27 июнь. 54-сон.
8. Халилов А. Устоз журналист армуғони // “Бухоронома”. 2009 йил 27 июнь. 54-сон.
9. Халилов А. Устоз журналист армуғони // “Бухоронома”. 2009 йил 27 июнь. 54-сон.

